E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Abdirasulov Bahodir Abdimital o‘g‘li
Samarqand davlat chet tillar instituti
assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillariga xos bo‘lgan frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari misollar bilan yoritib berilgan. Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida asliyat va tarjima tillarining ijtimoiy-madaniy hayot shakllari alohida e’tiborga olinib asliyat tilining milliy xususiyatlarini saqlab qolgan holda tarjima tilida ekvivalent matn yaratish uchun foydali ko‘rsatmalar tavsiya etilgan.
Kalit so‘zlar: Lingvomadaniyat, frazeologik birliklarning klassifikatsiyasi, bibleizm, o‘zlashma frazeologik birliklar.

Kirish. Hozirgi zamonda frazeologizmlarni lingvomadaniyatda o‘rganish dolzarb va munozarali masalalardan hisoblanadi. Frazeolizmlarning milliy – madaniy xususiyatlarini aniqlash, farq qiluvchi, o‘xshash jihatlarini aniq va obyektiv yoritish maqsadida birinchi navbatda ularning kelib chiqishi tarixi, manbalarini ya’ni etimologiyasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism, Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma’lum emas, kelib chiqish manbalarini aniq ko‘rsatish ancha qiyin. A.V.Kunin fikricha “Ingliz tili frazeologizmlari aksariyatining mualliflari noma’lum bo‘lib,ular xalq tomonidan yaratilgan” [2, 130].

Madaniyatlarning o‘zaro ta’siri asosida paydo bo‘lgan frazeologizmlarni uchga bo‘lish mumkin:

1. Injil asosida yuzaga kelgan frazeologik birliklar.
2. Qadimgi afsonalar asosida shakllangan frazeologik birlilar.
3. Yevropa tillaridan o‘zlashgan frazeolog‘ik birliklar.

Injil asosida kelib chiqqan freazologizmlarning semantik, lingvomadaniy aniqlashda lug‘atlarni tahlil qilish,lingvistik tahlil va statistik metodlari qo‘llaniladi.

Din bu madaniyatning o‘zida namoyon qiluvchi bir namuna va inson tasavvurining muhim qismidir: Din frazeologizmining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Xristian dinida bo‘lgan Britaniyaliklarning muqaddas diniy kitobi Bibliya hisoblanadi. Shuning uchun ham ayrim iboralar qatorida joy nomlari hamdaoziq-ovqat komponentli frazeologizmlar ham og‘zaki ham yozma nutqda Bibliyadan olingan. Bibliya frazeologiyasi internatsional frazeologik fondning bir qismini tashkil qiladi va aksariyat Yevropa tillarida keng tarqalgan Bibliyadan olingan frazeologizmlar bibleizmlar deb ataladi.

Bibliya frazeologizmlari quyidagi lug‘atlarda ko‘p uchraydi: *Oxford Dictionary of English Idioms, Longman Dictionary of English Language and Culture, Wordsworth Dictionary of Phrase and Fable*.

E. M. Soloduxo ishlarida ko‘p tillar frazeologiyasida yetarlicha keng qatlamda namoyon bo‘luvchi “frazeologik internatsionalizm”ni tahlil qilgan “frazeologik yaqinlashuv” nazariyasi? Bibliya frazeologiyasiga qiziqish uyg‘otadi.

“Frazeologik internatsionalizmning asosini nafaqat Rim va Grek mifologiyasi, butun shahar adabiyoti va tarixiy kiruvchi birliklar balki Bibliya tarkibidagi frazeologik birliklar ham tashkil qiladi E. M. Soloduxo frazeologik internatsionalizm o‘zlashmalari manbasi va asosi tushunchalarining farqini kuzatadi va birinchi tushuncha ikkinchisiga qaraganda ancha keng ekanini ko‘rsatib beradi” [4, 75].

Muqaddas diniy kitobdan kelib chiqqan so‘z va iboralar S. Stoffeldning *“Studies in English, written and spoken”* asarida keng tahlil qilingan. Ushbu asarning *“Scriptual phrases and allusions in Modern”* bobida muallif bibliya iboralari va ularning etimologiyasini o‘rganib

ilmiy tadqiq qilgan.

G‘arb tilshunosligida bibleizmlarni o‘rganish L. P. Smit nomi bilan bog‘liq. U o‘zining *“Phraseology of the English language”* kitobida bibliya iboralariga bag‘ishlangan bo‘limida o‘rgangan. Muallif “Ingliz tilidagi bibliya iboralarning soni shunchalik ko‘pki, ularni yig‘ish va sanab chiqish juda oson vazifa emas” deb ta’kidlaydi [3, 176].

Miloddan avvalgi VI asrda yashagan yunon faylasufi Pifagor birinchi bo'lib raqamlarning hisoblash va undan tashqari ma'noga ega ekanligini ko‘rsatgan. Raqamlar ilohiy ahamiyatga ega ezoterik belgilar edi. Bibliyani yahudiy va keyinchalik nasroniy o'quvchilari Pifagordan ilhom olib, barcha ijodiy usullardan foydalangan holda raqamlardan mifik ma'nolarni olishga harakat qilishgan.

7 raqami "mukammallik"ni ifodalagan.

Bibliyada tilga olingan barcha raqamlar ichida 7 aniq ramziy va eng muqaddas ekanligi tan olingan. Devisning yozishicha, shumerlar va bobilliklarning mixxat yozuvlari Qadimgi Sharqda 7 raqami butunlik, to'liqlik va mukammallikni anglatishini tasdiqlaydi.

7 raqami Bibliyada 600 martadan ko‘proq ishlatilgan:

- God rested from Creation on the seventh day - Xudo yettinchi kuni yaratishdan to‘xtadi.

- In Joseph's time, Egypt suffered seven years of plenty and seven years of famine - Yusuf davrida Misr yetti yil mo‘l-ko‘lchilik va yetti yil ocharchilikni boshidan kechirdi [2, 47].

- God commanded the Israelites to eat unleavened bread for seven days in memory of the exodus from Egypt - Xudo isroilliklarga Misrdan chiqishni eslab, yetti kun davomida xamirturushsiz non yeyishni buyurdi

Ba’zi ingliz frazeologik birliklarida ham “yetti” raqami ishlatiladi. Bu “yetti raqamining ramziy ma’noga ekanligini ko‘rsatadi. Masalan: *A Fool may ask more questions in an hour than a wise man can answer in seven years* - Ba'zi odamlar birinchi navbatda o'ylamasdan yoki yechim topmasdan savollar berish bilan shug'ullanishadi. Bu yerda bir ahmoq odamning bir soat ichida o‘ylamasdan shunchalar ko‘p savol berishini aqlli odamning esa har bir savolga o‘ylab, mulohaza bilan javob berishi uchun ko‘p vaqt ajratishini kuchaytirib *“seven”* (yetti) raqami orqali ifodalamoqda.

Xuddi shu ma’noda, *A Fool may throw a stone into a well which a hundred wise men cannot pull out* – Bitta ahmoq quduqqa tosh tashlasa o‘nta aqllini ovvora qiladi, frazeologik birligi ham ishlatiladi. Ingliz tilida *“a hundred”* (yuz) sonining o‘zbek tilidagi frazeologik birlikladi ekvivalenti sifatida *“o‘n”* raqami ishlatilmoqda. Bu ikki tilning madaniy va hayot tarzidagi farqlarini ko‘rsatib beradi. O‘zbek tilida ma’noni kuchaytirish ma’nosida yuz soniga qaraganda o‘n soni ko‘proq qo‘llaniladi. Ammo, *One eye-witness is of more weight than ten hear says* – ushbu maqolni o‘zbek tilidagi ekvivalnti *Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal* kabi ifodalanadi [1,48]. Bu maqolda “ten” o‘zbek tilida miqdorning yanada kattaligi ya’ni, “ming” soni bilan ifodalangan.

7 raqami sharq dunyosida ilohiy raqam hisoblanadi. Yetti yot begona (Cousin seven times removed), bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal (Experience is the mother of wisdom), Aziz momo olti kun, qahri kelsa – yetti kun (March comes in like a lion and goes out like a lamb), Yetti o'lchab bir kes (Measure thrice before you cut once), yetti o‘lchab bir kes (second thought is the best), Kambag'alning yettita qorni bor (Poor as a church mouse), Bir sinalgan tajriba, Yetti kitobdan afzal (Wit once bought is worth twice taught), Xotin yettiga chiqsa, yetti uyning kalitini ola chiqar (A woman conceals what she knows not), Borga yetti kun xayit, yo'qqa — bir kun (Appetite comes with eating). Shuningdek, haftaning yetti kuni, yetti yoshdan yetmish yoshgacha, hikoya va dostonlarda ishlatiladigan 7 yil (qahramonlarning yetti yil zindonda qolib ketishi holatlari), yetti sayyora kabi birliklar xalqning madaniy hayotining bir bo‘lagi, yillar davomida to‘plagan boy merosi sifatida saqlanib kelmoqda.

Ikki soni bir butunlikning ikki tomoni ma’nosini ham ifodalaydi. Ikki yorti bir butun,

tanganing ikki tomoni, Ikki karra ikki — to'rt bo'ladi - *Certain as two and two make four.*

Ikki raqami qarama qarshilikning ham ifoda etadi. Ikki qayiqni boshini tutgan suvga g‘arq bo‘ladi - *Between two stools one falls to the ground or no man can serve two masters,* bir salla tagida ikki kalla bo‘lmas - *You cannot flay the same ox twice,* Ikki xotinlikning qulog'i tinmas, eshak minganning — oyog'i - *Three women and a goose make a market,* Ikki qo'chqor kallasi bir qozonda qaynamas - *Two of a trade never agree,* Ikki yomon qo'shilsa, keng dunyoga sig'ishmas - *Two blacks do not make a white,* Ikki xo'roz xirmon sochar, o'z ketini o'zi ochar - *Two negatives make an affirmative,* Qars ikki qo'ldan chiqar - *It takes two to make a quarrel* [1, 358].

Mukammallikni ifodalaydi: Bir bosh — balo bosh, ikki bosh — mardona - *Two heads are better than one.*

Xulosa, Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, milliy va madaniy frazeologizmlarning aksariyati xalqning kundalik turmush tarzi,rasm – rusumlari va urf – odatlari bilan bog‘liq. Madaniyatlarining o‘zaro ta’siri asosida paydo bo‘lgan frazeologik birliklarning tahlili O‘zlashma iboralarning bir – biriga o‘xshashligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karamatova K. M., Karamatov H.S. Proverbs. Maqollar. Пословицы. Toshkent: “Mehnat”, 2000. -398b.
2. Кунин А.В. О нормативном стилистическом использовании фразеологических единиц (на материале современного английского языка). // Сб. научи, трудов МГПИИЯ им. М. Тореза. - М., 1973. – 130 с.
3. Смит Л. П. Фразеология английского языка Перевод с англ. М.: Учпедгиз, 1959. -208с.
4. Солодуб Ю.П. К вопросу о совпадении фразеологических оборотов в различных языках//Вопросы языкознания. - 1982,- №2.-181 с.
5. Yusupov Asror 2023. LINGVOKULTUROLOGIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIDA LEKSIKOGRAFIYANING QO‘LLANISH O‘RNI VA AHAMIYATI. IQRO JURNALI. 1, 2 (Feb. 2023), 311–316.
6. Abdimital o'g'li, A. B. (2023). TARJIMANING TRANSFORMATSION MODELI.
7. Abdirasulov, B. A. O. G. L. (2022). NUMERATIV TURG'UN BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI. *Scientific progress*, *3*(4), 275-280.
8. Abdirasulov, B. A. O. G. L. (2020). KONTSEPTNING LISONIY VOQELANISH JARAYONI. *Science and Education*, *1*(9), 296-301.
9. Bayanxanova, I. F., & Soliyeva, A. (2022). O’ZBEK VA KOREYS TILLARIDA KELISHIK KATEGORIYASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 24), 114-121.
10. Халимова, Ф. Р. (2016). AN UZBEK NATIONAL POETIC GENRE-" GAZEL" AND ITS TRANSLATION INTO UZBEK (THE EXTRACT FROM" FIROQNOMA"(A VERSE ABOUT SEPARATION), WRITTEN BY NODIRA). *Ученый XXI века*, (4-1 (17)), 57-59.
11. Isroilovna, D. M. (2019). DISCUSSIONS ON THE POEMS CREATED ON SUJET. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(9), 10-25.
12. Халимова, Ф. Р. (2019). Прагматические свойства лингвофонетических средств в поэтическом тексте и их сравнительный анализ при переводе. *Вестник Челябинского государственного университета*, (1 (423)), 138-144.
13. Yusupov, O. (2020). Lexical doublets in English and Uzbek linguistics. *Journal of Critical Reviews*, *7*(5), 466-468.
14. Yusupov, O. (2022). Хорижий тилларни ўқитишда таржиманинг аҳамияти. *Chet tillarni o'qitishda dolzarb muammolar, innovatsiyalar, an'analar, yechimlar va badiiy adabiyotlar tahlili*, *1*(01), 9-11.